

## BOLALARNI KITOB O'QISHGA QIZIQTIRISHDA, OTA-ONALARNING VAZIFALARI

**F.F.Yuldasheva***Ilmiy rahbar :**O'zDJTU katta o'qituvchisi***Gulshoda Eshquvvatova***O'zDJTU talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada farzandlarini kitob o'qishga qiziqtirishdagi ota-onalarning munosabati va asosiy vazifalari haqida ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari bolalarda kitobxonlikni oshirishda bir qator tajribalardan foydalanib ko'rishi hamda ko'pgina, foydali maslahatlar bilan tanishtirib o'tiladi.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об установках родителей и основных задачах проявить детям интерес к чтению. Будет представлен ряд экспериментов и много полезных советов для улучшения навыков чтения детей.

**Annotation:** This article provides information about the attitudes of parents and the main tasks to instill in children interest in reading. A series of experiments and many useful tips will be presented to improve reading skills in children.

**Kalit so'zlar:** kitobxonlik, ma'rifat, tajriba, axborot-kommunikatsiya, metodika, psixologiya, yosh, mashg'ulot, miya faoliyati

**Ключевые слова:** чтение книг, просветление, опыт, информация и коммуникация, методология, психология, возраст, активность мозга.

**Key words:** book reading, enlightenment, information and communication, experience, methodology, psychology, age, training, brain activity.

Hozirgi kunga kelib ko'pchilik yoshlarimiz Internet olamiga shung'ib ketayotganligi sababli atrofidagi narsalarga ham befarq bo'lib bormoqda. Internet tarmoqlarida barcha ma'lumotlar ham bizning foydamizga hal bo'lmaydi aksincha, zararli tomonlari ham bor ekanligini ko'rib turibmiz. Bu qanchalar achinarli bo'lmasin, aslida bu haqiqat. Agar shu ketishda davom etsa, kelajagimiz tanazzulga yuz tutishi mumkin. Shu sababdan ota-onalarimiz farzandlarini kitob o'qishga yo'naltirsalar, bu narsaning oldini olgan bo'lamiz. Kitob bolalarning dunyoqarashini qanchalar o'zgartirishini tajribalardan ko'rib, o'ziz guvohi bo'lasiz. Bolalarni

kitob o'qishga qiziqtirishimiz uchun qanday ko'rsatmalarga amal qilishimiz kerak? Eng avvalo, kitob o'qishni bolaga, ona qornidayoq boshlash kerak. Buning uchun onalarimiz kitob mutolaa qilib turishlari lozim. Bu mashg'ulot bola va ona sog'lig'i uchun ham ancha foydali. Bola tug'ilgach, barcha ko'rgan narsalarini sekinlik bilan anglay boshlaydi. Ko'rish, eshitish orqali barcha ma'lumotlar miyasiga yetib borib, ong ostiga o'ta boshlaydi. Shu sababli ota-onalarimiz bola yonida kitob o'qishi va ikki-uch yoshlarida ertak aytib berishi lozim. Quyidagi ma'lumotlarga diqqat qiling:

1. Bola miyasining 90% uning 3 yoshiga qadar rivojlanib bo'ladi. Shu davrda bolaga kitob o'qib berish miya rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Uch yoshlik bolaning so'z boyligiga qarab u maktabga qabul qilinganidan so'ng «o'qish»dan necha baho olishini oldindan bilsa bo'ladi.

3. Kuniga 15 daqiqa davomida bolaga kitob o'qib berilsa, u 1 yil mobaynida 1 millionga yaqin yangi so'zni eshitgan bo'ladi.[1]

Vaqt o'tib borgan sayin bola barcha narsani anglay boshlaydi. Eshitgan narsalarini qaytargisi, yana qaytadan eshitishni xohlaydi. Ko'rgan narsalarini qilib ko'rishni xohlaydi. Eng muhimi ota-onasi bajarayotgan ishlarni to'g'ri deb biladi va ular qilayotgan ishni qilib ko'rishni xohlaydi. Ana o'sha paytda siz kitob o'qiyotganingizni ko'rsa, u ham o'qishni xohlaydi. Ko'pchilik ota-onalarimiz bunga o'sha paytda e'tibor berishmaydi. Keyin bolalari maktabga chiqishganda, ularning yaxshi o'zlashtira olmasligidan xavotirga tusha boshlaydi. Ba'zi ota-onalarimiz o'shanda ham ularning yosh ekanligini sabab deb bilishadi. Ba'zi ota-onalarimiz esa majburlab o'qitadi va sinfda eng zo'r o'quvchi bo'lishi kerakligini o'qtirishadi. Bunda biz bolalarni o'qishdan bezdirib yoki bo'lmasa faqat majbur bo'lgandagina, o'qishga odatlantirib qo'yishimiz mumkin.

Bolalarni erkin holda kitob o'qishi, fikrlashi uchun imkon yaratib berishimiz lozim. Ya'ni Benjamin Franklin aytganidek, "Menga ayt va men unutam, menga saboq ber va men eslab yuraman. Meni qiziqtir va men o'rganaman". Bolalarni hech qachon majburlab, nimagadir o'rgata olmaymiz lekin qiziqish uyg'otsak, albatta, buni uddalay olamiz. Eng muhimi, biz ularga qanday kitoblarni o'qib berishimiz va ular qiziqqan mavzudagi kitoblarni olib berishimiz lozim. Jahon adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega ijodkor Henrix Hayne bolalik xotiralari haqida yarmi hazil, yarmi chin ma'noda shunday yozadi: "Onam bolaligimda she'rlar o'qib berardi, men shoir bo'ldim. Amakivachchamning onasi faqat qaroqchilar haqida kitoblar o'qib berardi, u bankir bo'ldi". Shunday ekan ota-onalarimiz kitoblarni ham tanlashda ham katta bilimga ega bolishi kerak.

Respublikamiz prizidenti ham kitob o'qish yoshlarimiz hayotida muhim ahamiyatga ega, ekanligini takidlab, "Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi" aytgan so'zlari fikrimiz dalidir. [1,27-bet]

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda biz ota-onalarga tajribalarni tavsiya etishimiz mumkin:

- bolalarni tez-tez kitob do'konlariga olib borib turing;
- bolangiz yoshidan kelib chiqqan holda, kitob olib bering;
- o'zingiz o'qigan kitobni bolangizga tushunadigan tarzda, so'zlab bering;
- o'qitishda ko'proq rasmi kitoblardan foydalaning;

-ularning xonasida o'zlarining kitob javonini shakllantiring;

-tanlagan kitobingiz psixologik-pedagogik talablarga javo bersin.[384-386]

Xulosa qilib aytganda,kitob barcha ezgu g'oyalar yetakchisi hisoblanadi.U bizni ma'rifat tomon yetaklaydi.Shunday ekan,kitob o'qigan bolaning kelajagi yorug' va maqsadlari ulkan bo'ladi.Fikrlashi teran,o'tkir bo'lib,kelajakda ulardan yaxshi inson chiqadi.Aziz ota-onalar,farzandingiz taqdiriga befarq bo'lmang,ularni kitobga oshno qiling.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.O`zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus-T.: 2019 yil, 19-mart.B.27

2.Таджибаева, Феруза. Oilada bolalarda kitobxonlikni shakllantirish omillari — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 27 (317). — В. 384-386.

Internet

saytlari:

1.<https://farzandtarbiyasi.uz/kitob-oqib-berish/>